

**Usmona Fe'ruza Ma'quljon qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 1-kurs magistranti*

email: [usmonovaferuza98@mail.ru](mailto:usmonovaferuza98@mail.ru)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola Xiva xonligining Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi ko'rib chiqqan holda tahlil qilingan. Imperializm insoniyat tarixida avvaldan turli xil shakllarda namoyon bo'lib kelgan bo'lib, insonlar bu hodisaga umrlari davomida guvoh bo'lib kelishgan. Imperiyalarning istilochilik harakatlari boshqa xalq yerlarini o'zlashtirish, ularni o'ziga bo'ysundirish, tabiiy xomashyo boyliklariga ega chiqish tarzida namoyon bo'lib kelgan. Imperiyaning huddi shunday ko'rinishi XIX asrda Rossiya imperiyasining O'rta osiyo hududlarini bosib olishida yuzaga chiqdi desak xato bo'lmaydi. Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlarning tagida siyosiy, harbiy, strategik kabi omillar va eng muhimi iqtisodiy manfaat bor edi. Xiva xonligi esa Rossiyaning kelgusi muhim rejalari va kelajak istiqboli uchun muhim ahamiyatga ega edi. [1]*

**Kalit so'zlar:** *chor rossiyasi, ekspeditsiyalar, istilo qilish, o'rganish, xiva, imperiya, harbiy, siyosiy, strategik*

### CONQUEST OF THE KHIVA KHANATE BY THE RUSSIAN EMPIRE

**Abstract:** *This article is analyzed considering the conquest of Khiva Khanate by the Russian Empire. Imperialism has been manifested in various forms in the history of mankind, and people have witnessed this phenomenon throughout their lives. The conquest actions of the empires have been manifested in the form of appropriating the lands of other peoples, subjugating them, acquiring natural resources. It would not be a mistake to say that the appearance of the empire appeared in the XIX century when the Russian Empire conquered the territories of Central Asia. At the bottom of the Russian Empire's aggressive actions were political, military, strategic factors, and most importantly, economic interests. The Khanate of Khiva was important for Russia's future plans and prospects. [1]*

**Keywords:** *tsarist Russia, expeditions, conquest, study, Khiva, empire, military, political, strategic*

### ЗАВОЕВАНИЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

**Аннотация:** *В статье анализируется история завоевания Хивинского ханства Российской империей. Империализм проявлялся в различных формах в истории человечества, и люди были свидетелями этого явления на протяжении всей своей жизни. Завоевательные действия империй проявлялись в форме присвоения земель*

*других народов, их подчинения, приобретения природных ресурсов. Не будет ошибкой сказать, что облик империи появился в XIX веке, когда Российская империя завоевала территории Средней Азии. В основе агрессивных действий Российской империи лежали политические, военные, стратегические факторы и, главное, экономические интересы. Хивинское ханство имело важное значение для будущих планов и перспектив России. [1]*

**Ключевые слова:** царская Россия, экспедиции, завоевание, изучение, Хива, империя, военное, политическое, стратегическое.

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'zining kelajak istiqboli uchun mustaqil qarorlar qabul qila oladigan davlat sifatida maydonga kelib, rivojlanish bosqichiga kirib keldi. Shunday kunlarda o'tmish, kechagi kungga nazar tashlash, so'nggi mustamlakchilik asoratini o'rganish ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek davlatchiligi Xorazm mintaqasida bundan 2700 yil oldin vujudga kelgan edi. Xalqimiz asrlar davomida chet el bosqinchlariga qarshi mustaqillik uchun ayovsiz kurashib kelgan. Xiva xalqi deyarli uch yuz yil davomida, birinchi rus imperatori Pyotr I(1682-1725) davrida uyushtirilgan harbiy yurishlar davridan beri Rossiya bosqini xavfi bilan yashadi. O'zaro raqobat va ziddiyat shuncha vaqt davom etdi. Bu orada Rossiya Xivaga qarshi besh marta harbiy ekspeditsiyalar tashkil qildi. Nihoyat uzoq va puxta tayyorgarlikdan keyin XIX asr 70-yillarida Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga qarshi keng ko'lamli harbiy yurishlarni boshladi. 1873-yilning yoziga kelib, Xiva xonligi bo'ysundirildi va shu yilning 12-avgustida tuzilgan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Rossiya imperiyasiga qaram davlatga aylantirildi. Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi uch yuz yillik qarama-qarshilik va ziddiyat oqibati sifatida Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi mazkur tarixiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan, guvoh bo'lgan mahalliy shaxslar, rus imperiyasi, sovet va mustaqillik davri tarixchilari, xorij tadqiqotchilari tomonidan ancha batafsil o'rganilgan va yoritilgan.to'g'rirogi xorij tarixchilari tomonidan obyektiv tarzda ko'rsatib berilgan.

### Xiva xonligining qisqacha tavsifi

Xiva xonligi o'zining qo'shnilari bo'lgan, Buxoro va Qo'qon xonligidan farqli ravishda juda keng va geografik birligidan xuzurlanar edi. Shuningdek Xiva hududagi atrofi sahro bilan qoplangan yagona voha edi. Ko'pgina aholi va unumdor yerga ega bolgan vohaning janubiy qismi davlatning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning markazi hisoblanardi. XIX asr davomida Xivaning aholisining soni 700000-800000 oralig'ida bo'lib ularning 72% o'troq aholi, 22% yarim ko'chmanchi aholi va 6 % ko'chmachilar bo'lgan. Umumiy aholining 60% Xivaning janubiy qismida yashagan bo'lsa , faqatgina 6% Xivaning boshqa turli shaharlarida yashagan. Shahar aholisining asosiy qismini uzluklar, sartlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, qipchoqlar, va turkmanlar tashkil etganligiga



qaramasdan, xonlikning asosiy aholisi o'zbeklar hisoblangan. *Xiva xonligining boshqaruv usuli* avtokratik tuzumga asoslangan bo'lib, mahalliy boshqaruv organlariga cheklangan vakolat berilib, butun monopol huquq markaziy hukumat qo'lida bo'lgan. Xivadagi devonbegi buxorodagi qushbegi lavozimi bilan teng ravishda zakot yig'ish va qo'shinga qo'mondonlik qilish kabi qo'shimcha majburiyatlarni ham bajargan. Xonlik poytaxt va 20 ta beklikka bo'lingan bo'lib bu beklklar, ramziy boshqaruv vakolatiga ega hokimlar tomonidan boshqarilgan. Etnik ozchilikni tashkil etgan turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar o'zlari tomonidan saylangan, ma'lum bir mustaqillikka ega qabila sardorlari tomonidan boshqarilgan bo'lib, qabila sardorlari to'gridan to'g'ri xonga itoat etardi.

### **Rossiya Imperiyasining Xiva xonligini istilo qilishi**

Xiva avvaldan Rossiyaning Markaziy Osiyodagi eng muammoli qo'shnisi bo'lib, Buxoro va Qo'qon bo'ysunishga majbur bo'lganidan keyin, Xiva bilan Rossiya o'rtasidagi qarama-qarshilik muqarrar bo'lib qoldi. Lekin Xivani bosib olish Rossiya uchun Buxoro va Qo'qon xonligini bo'sundirish kabi oson emas edi. Chunki xiva xonligiga qarshi avvalroq uyushtirilgan 1717-yil Bekovich Cherkaskiy va 1834-yildagi Perovskiy ekspeditsiyalarining ayanchli halokati Rossiya hukmron doiralarning yodidan ko'tarilmagan, shuningdek Xivaning cho'l mintaqasidagi orol sifatida kuchli tabiiy mudofaa pozitsiyasi, asosiy muammo esa Xivaning juda uzoqda joylashganligi edi. Voha ulkan sahroning o'rtasida joylashgan bo'lib Toshkentdan 600 mill Orenburgdan 930 mill va Krasnovodskdan 500 mill uzoqlikda edi. Bunday uzoq masofa va qiyinchiliklar Rossiyaning tartibli qurolli kuchlari va ilg'or texniklarining afzalliklarini puchga chiqardi. Shu sababli ham puxta reja qilishga qaror qilindi. 1871-yilning yoz fasli va 1872-yilda Buxoro janubidagi Qizilqum sahrosining bir qismi ko'zdan kechirilib, o'rganib chiqildi va kichik bir otryad Kazalinskdan Xiva yo'lida joylashgan bu hududni tadqiq qilish uchun yuborildi. Boshqa bir otryad esa Emba daryosining shimoliy va Xivaning shimoliy-g'arbiy qismi ya'ni Amudaryo viloyatiga jo'natildi. Nihoyat 1873-yilda navbatdagi 3-ekspeditsiya Xivani bosib olish uchun bahor faslida rejalashtirildi, chunki Perovskiy ekspeditsiyasidan olingan saboq hali esdan chiqmagandi va ko'pgina yo'nalishlar bo'ylab olg'a siljish muvaffaqiyatlar kaliti sifatida ko'rildi. General N.N.Golochov nazorati ostidagi asosiy bo'linma Toshkentdan yo'lga chiqdi. General Veryovkin boshchiligidagi boshqa bir bo'linma esa mart oyida orenburgdan, General Markozov Krasnovodsk yaqinidan M,Lomakin boshchiligidagi to'rtinchi bo'linma esa Mang'iqishloqdagi Aleksandr portidaan yo'lga chiqishdi. Tarkibida 13000 odam va 62 ta artelliriy qurollari bo'lgan ekspeditsiya esa Fon Kaufman boshchiligidagi Toshkentdagi bo'linmaga rahbarlik qildi. Bu operatsiya, tarkibining kattaligi, ko'p vaqt rejalashtirilganligi va juda ko'p mashhur shaxslarnig bu urush tufayli o'z nufuzlarini oshirish payida bo'lganligi tufayli ham qiyinlashgan. Fon kaufman esa Xivani olish tufayli erishadigan obro'si uchun ham juda ishtiyoqmand bo'lgan shu bilan bir qatorda general Veryovkin ham bunday martabani qo'ldan

chiqarishni istamas shu sababli bu ikki general o'rtasida zimdan adovat mavjud bo'lganligi ham ma'lum. Turkiston va Orenburg ekspeditsiyasi qo'shinlari 1873-yil may oyida xiva xonligi chegaralariga yaqin kelishdi yo'lda podsho qo'shinlariga xivaliklarning turkmanlar va mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan ko'plab mayda guruhlar hujum qilishdi, ammo bu hujumlar muavaffaqiyatsiz yakunlandi. 1873-yil may oyida Qo'ng'iro't va Hazorasp bekliliklarida rus qo'shinlariga qarshi janglar bo'lib o'tdi. Ammo podsho qo'shinlariga qarshi kurashgan xivaliklarning son va harbiy jihatdan zaif bo'lganligi chor rossiyasining g'alabasini ta'minladi. Poytaxt Xivaning o'zida ham asosan turkmanlardan iborat bo'lgan bo'linma va qisman xivaning boshqa aholisi tomonidan rus qo'shinlariga qarshi ma'lum qarshiliklar bo'lib, bu jangda general Vervovkin yaralandi, General Skobelov esa shahar aholisining qarshiligini bostirish uchun shaharni bombardimon qilishni buyurdi. Bu paytda xon allaqachon Toshhovuzga qochib ketgan bo'lib, u yerdan turib Kaufmanga uning barcha shartlariga rozi bo'lganligini va shaharni bombardimon qilishni to'xtatishini va chor rossiyasiga tobe bo'lishga rozi ekanligini bildirib xat yozdi. Shundan so'ng Muhammad Rahimxonga poytaxtga qaytishi uchun ruhsat berildi, ammo xon Xivani boshqarishda ortiq suveren hokimiyatga ega bo'lmay, Fon Kaufmanga vassal ekanligini ma'lum qildi. Ruslarga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Devonbegi Muhammad Murod ushlanib Moskvadan yuz mil naridagi uzoq Kaluga shahriga surgun qilinib, o'rniga podsho Rossiyasi hukumatiga sodiq bo'lgan Muhammad Niyoz Devonbegi lavozimiga tayinlandi. Boshqa bir muammo turkman qabilalari edi chunki xiva atrofida yashayotgan bu turkman qabilalari xivani himoya qiladigan asosiy kuch bo'lib, shu sababli Kaufman har tomonda Rossiyaning ustunligini aholiga singdirishni muhim deb bilib, rus hukumati taxminan ikki hafta turkmanlarning Yovmut qabilasiga qarshi harbiy operatsiyani davom ettirdi. 1873-yil iyul oyida Kaufman, bu jamoaga qarshi 600000 rubl tovon to'lashni talab qildi. . Bu tovonni to'lash imkonsiz edi, Turkmanlar o'zining katta jamoasiga ega ko'chmanchilar bo'lib bu to'lovni to'lashga tayyor emas edi, turkmanlar tugul hatto markaziy hokimiyat ham bu summani yig'a olmasdi, talab qilingan tovonni turkmanlar tomonidan to'lanmaganligini bahona qilib, Fon Kaufman muddatidan oldin N.N.Golochovga g'azovot shahriga yurish qilishini buyurdi. Agar turkmanlar tovonni yig'ish uchun hech qanday harakatlarni amalga oshirmasa yoki agar ular rus imperiyasiga qarshi urushish uchun yig'ilish o'tkaziyotgani sezilsa yoki mamlakatni tark etsa Kaufman ularning oilalari to'liq vayron qilinib, ularning chorva mollari va mol-mulklarini musodara qilish tog'risda ogohlantirdi. Turkmanlarning qochib ketayotganini eshitib. Golochov ta'qib qilish uchun otryadni safarbar qildi ruslar cho'l bo'ylab harakatlanayotgan qochqinlarning katta kolonnasini bosib oldilar, ularning aravalari va chorva mollari yo'q qilishdi Alexander Morrison va turkmanlarni Zaykesh daryosigacha quvib bordi, ularning ko'plari daryoda cho'kib ketishdi. Shu bilan birga, turkmanlarning barcha uylari va mol-mulklari mahsulotlari yonib ketdi. Bu qirg'in va vayronagarchiliklar uchun qasos olish maqsadida turkmanlar juda ko'p



hujumlar qildi, ammo hammasi bostirildi. Iyulning oxirida turkmanlar taslim bo'lishga majbur bo'ldi va tovonni to'lashga tayyor ekanliklarini bildirdi. Kaufman xotirjam bo'lish uchun jazo qonunlarini joriy qilib, tovonning yarimini tuyalar bilan to'lashga ruhsat berdi, qolgan yarmini esa faqatgina o'zlaridagi mavjud qimmatbaho metallar, ayollarining oltin va kumush taqinchoqlari bilan to'lashi kerak edi. 1873-yilning 12-avgustda Xivaning Rossiyaga bo'ysunganligi to'g'risida Muhammad Rahimxon va rus ma'muriyati o'rtasida Gandimiyon shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra: Xon o'zini Rossiya imperiyasining "Sodiq hizmatkori" deb e'lon qilib xon ichki va tashqi siyosatda mustaqilligini yo'qotdi, shuningdek toshkentning roziligisiz boshqa bir davlatga urush qilish uchun armiya tashkil etmaslik majburiyatini oldi, Rossiya amudaryoning o'ng, sirdaryoning chap sohili, va butun Ustyurt platosiga egalik qilish va boshqarish vakolatiga ham ega bo'ldi. Qolaversa ruslarga xonlik hududida bemalol yashash va soliq to'lamasdan savdo qilish vakolati berildi. shuningdek xon 20 yil davomida 2.200000 rubl tovon puli to'lashi kerak edi.

#### XULOSA

Rossiya imperiyasining o'rta osiyoga xususan xiva xonligining bosib olishga bo'lgan harakatlari asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi, avvalo Amudaryo sohilidagi oltinlarga ega bo'lish istagi bo'lsa va yana Rossiya sanoati uchun zarur bolgan paxta xomashyosiga extiyoj kuchli edi. Rossiyaning xivaga qarshi iqtisodiy, siyosiy, harbiy harakatlarining ortida iqtisodiy jihatdan foyda ko'rish zarurati bor edi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Emil schmidt "The russian expedition to khiva " in 1873-(1876)
2. Henry lansdell "Russian central Asia including kuldja,bokhara,khiva and merv"
3. Macghan .I.A."Campaigning on the Oxus and the fall of khiva " new York 1874
4. Seymour Becker " Russia's Proectorates in central Asia "Bukhara and khiva ,1865-1924
5. Alexander Morrison "the Russian conquest of central asia "a study in imperial expansion 1814 – 1914
6. Richard A.Pierce "Russian Central Asia,1867-1917; A study in colonial rule .university of california press 1960 years.
7. Francis Henry Skrine and Edward Denison Ross "The heart of asia " A history of Russian Turkestan and the central Asian khanates from the earliest times first published in 1899 by Methuen &CO
8. Christie ella "through khiva to golden Samarkand "
9. Daniel Brower. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. USA & Kanada.2003 –P.213.

10. Elizabeth .E.Bacon.”Central asias under the Russian rule” Cornell university press 1966.
11. Mary holdsworth “Turkestan in the nineteenth century” st.Antony’s college (Oxford )Soviet affairs study group 1959.
12. Rambaud A. The expansion of Russian. Problems of the East and problems of the far east. Boston.Longwood.1979. –P.95.
13. Krader L. Peoples of Central Asia. – Indiana University publications, Vol.26.1962. – P.61
14. Becker, Russia’s Protectorate in Central Asia, p. 10.  
J. A. MacGahan, “Oasis of Khiva” in American Geographical Society, Vol. 6, 1874, New York, p. 118.
15. Francis Henry Skrine and Edward Denison Ross “The heart of asia “ A history of Russian Turkestan and the central Asian khanates from the earliest times first published in 1899 by Methuen &CO
16. Henry lansdell “Russian central Asia including kuldja,bokhara,khiva and merv”